

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммаед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммаед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna</b> TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
<b>2. Yusupova Soxiba Islombek qizi</b> O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
<b>3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna</b> GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
<b>4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat</b> HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
<b>5. Намазова Манзура Ураковна</b> ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
<b>6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna</b> AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
<b>7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich</b> THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
<b>8. Karimova Dilorom Shavkatovna</b> VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
<b>9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna</b> CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
<b>10. Шахзод Турниязов</b> ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
<b>11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna</b> XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
<b>12. Алена Ядмагиевна Иванова</b> ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
<b>13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna</b> EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
<b>14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</b> O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
<b>15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi</b> PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
<b>16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи</b> НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
<b>17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич</b> И.ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
<b>18. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
<b>19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna</b> O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
<b>20. Malika Soliyeva</b> INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
<b>21. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

<b>22. Xurinsa Xudoyberdiyeva</b> TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
<b>23. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
<b>24. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
<b>25. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
<b>26. Робиға Мамбетова</b> ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
<b>27. Ҳамидулла Годжиев</b> ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
<b>28. Ergashova Rano Turaevna</b> LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
<b>29. Bobir Maxammadov</b> MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
<b>30. Xalimova Firuza Rustamovna</b> POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
<b>31. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
<b>32. Матлуба Шукурова</b> ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
<b>33. Tashkulova Zarnigor</b> “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

ORCID: 0009-0007-0379-8897

**Yusupova Soxiba Islombek qizi**  
Ma'mun universiteti o'qituvchisi

## O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17086689>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek bolalar o'yin qo'shiqlarida atoqli otlarning ishlatilish xususiyatlari, ularning funksional vazifalari, hamda madaniy-ma'naviy kontekstda berilishi va semantik jihatlari tahlilga tortilgan. Bolalar qo'shiqlari bolalarning til rivojlanishi, dunyoqarashining kengayishi va madaniy merosni o'rganishida muhim rol o'ynaydi. Atoqli otlar orqali bolalar shaxslar, joylar, narsalar va tushunchalar bilan tanishadi. Maqolada o'rik, Paxtaoy, Andijon, Buxoro, Zumrad kabi atoqli otlarning qo'shiqlar orqali bolalarga ta'siri tadqiq qilingan. Atoqli otlar bolalarda yurtga muhabbat, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi. Qo'shiqlar bolalarning lug'at boyligini oshirish, to'g'ri talaffuzni o'rgatish va kelajakda savodli bo'lishiga yordam beradi. Mazkur maqolada o'zbek bolalar o'yin qo'shiqlarining bolalar rivojidadagi ahamiyati atoqli otlar orqali ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** atoqli ot, bolalar folklori, o'yin qo'shiqlari, semantika, antroponim, toponim.

**Yusupova Soxiba Islombek qizi**  
Teacher of Mamun university

## THE USAGE OF PROPER NOUNS IN UZBEK CHILDREN'S SONGS

### ABSTRACT

This article examines the features of the use of proper nouns in Uzbek children's play songs. The functional roles of proper nouns, their presentation in a cultural and spiritual context, and their semantic load are studied. Children's songs play an important role in the language development, broadening of the worldview, and learning of cultural heritage of children. Through proper nouns, children become acquainted with people, places, things, and concepts. The article analyzes the impact of proper nouns such as apricot (o'rik), Paxtaoy, Andijan, Bukhara, Zumrad on children through songs. It is shown that proper nouns are important in shaping feelings of love for the homeland, concepts of good and evil in children. Songs help children increase their vocabulary, learn correct pronunciation, and become literate in the future. This article reveals the importance of Uzbek children's play songs in the development of children through proper nouns.

**Key words:** proper noun, children's folklore, play songs, semantics, anthroponym, toponym

Юсупова Сохиба Исламбековна  
Преподаватель Университета Мамун  
syusupova987@gmail.com

## УПОТРЕБЛЕНИЕ ИМЕН СОБСТВЕННЫХ В УЗБЕКСКИХ ДЕТСКИХ ПЕСНЯХ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье исследованы особенности использования собственных имён в узбекских детских игровых песнях. Изучены функциональные задачи собственных имён, их представление в культурно-духовном контексте и семантическая нагрузка. Детские песни играют важную роль в развитии речи детей, расширении мировоззрения и изучении культурного наследия. С помощью собственных имён дети знакомятся с людьми, местами, вещами и понятиями. В статье анализируется влияние на детей через песни таких собственных имён, как *орик* (абрикос), *Пахтаой*, *Андижан*, *Бухара*, *Зумрад*. Показано, что собственные имена имеют важное значение в формировании у детей чувства любви к родине, понятий добра и зла. Песни помогают детям расширить словарный запас, научиться правильному произношению и стать грамотными в будущем, статья раскрывает значение узбекских детских игровых песен в развитии детей через собственные имена.

**Ключевые слова:** собственное имя, детский фольклор, игровые песни, семантика, антропоним, топоним.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bolalar folklori xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biridir. Uning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan o'yin qo'shiqlari esa nafaqat estetik, balki ijtimoiy, madaniy va lingvistik ahamiyatga ham egadir. Ushbu qo'shiqlar bolalarning nutqiy rivojlanishiga, ijtimoiylashuviga, madaniy qadriyatlarini anglashiga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'yin qo'shiqlarida uchraydigan **atoqli otlar** (ism, familiya, geografik nomlar) bolalarning eshitish, tushunish va tanib olish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Atoqli otlar bolalar ongida dunyo manzarasini shakllantirish, ularni ijtimoiy muhitga integratsiya qilishda vositachilik qiladi. Mazkur maqolada o'zbek bolalar o'yin qo'shiqlarida uchraydigan atoqli otlar turlari, ularning qo'llanish funksiyasi va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

### METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ushbu metodologik yondashuvlar o'zbek bolalar o'yin qo'shiqlarida atoqli otlarning qo'llanilish xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularning bolalar rivojidagi ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot quyidagi metodik yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

- **Deskriptiv metod:** bolalar o'yin qo'shiqlaridagi atoqli otlarning yig'ilishi va tasnifi;
- **Struktural tahlil:** atoqli otlarning morfologik va sintaktik funksiyalarini aniqlash;
- **Semantik tahlil:** atoqli otlar bilan bog'liq ma'nolar tizimini o'rganish; atoqli otlarning mazmuniy yuklamasi, obrazlilik darajasi va bolalar dunyoqarashiga ta'siri aniqlandi.
- **Kontekstual tahlil:** atoqli otlarning qo'shiq ichidagi konnotativ (bilvosita) vazifasini ochib berish; Qo'shiqlarda qo'llanilgan atoqli otlarning tematik guruhlari (antroponimlar, toponimlar, zootoponimlar va boshqalar) aniqlandi va ularning miqdoriy nisbati o'rganildi.
- Qiyosiy-tipologik metod: Turli davrlarda yaratilgan va turli hududlarda tarqalgan o'yin qo'shiqlarida atoqli otlarning qo'llanilishi qiyoslandi.
- **Manba bazasi** sifatida "O'zbek xalq bolalar folklori" to'plamlari, xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanildi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Bolalik – beg'uborlik, hayajon va o'yinlar dunyosi. Bu dunyoni yanada jozibali qiladigan omillardan biri – bolalar o'yin qo'shiqlari. Ushbu qo'shiqlar nafaqat bolalarni xursand qiladi, balki ularning til boyligini oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek

bolalar o‘yin qo‘shiqlarida atoqli otlarning qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega. O‘zbek bolalar qo‘shiqlarida atoqli otlar turfa xildir; ularda inson ismlaridan tortib geografik joylar, hayvonlar va afsonaviy qahramonlarning nomlarigacha topiladi. Masalan, “O‘rik gulladi” qo‘shig‘ida “O‘rik” daraxtining, “Paxtaoy” qo‘shig‘ida “Paxtaoy” qizining, “Andijon polkasi”da esa “Andijon” shahrining nomlari atoqli otlar vositasida yorqin aks etgan. “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Chuchvara qaynaydi” kabi ko‘plab o‘yinlar va ularning qo‘shiqlari O‘zbekistonning turli hududlarida har xil nomlar bilan atalsa ham, mazmuni asosan bir xil. Bunday qo‘shiqlar bolalarning bir-biri bilan muloqot qilish madaniyatini, do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularning jismoniy va ma‘naviy o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan 50 dan ortiq o‘yin qo‘shiqlarida quyidagi atoqli otlar uchrashi aniqlandi:

<b>Atoqli otlarning terminlarda ifodalanishi</b>	<b>Ma‘nosi</b>	<b>Misollar</b>
Antroponimlar	Shaxs ismlari	Islomjon, Mamat, Dilshod, Xolnisa, Boymurod
Toponimlar	Joy nomlari	Qo‘qon, Samarqand, Andijon, Xorazm
Zooponimlar	Hayvon ismlari, lekin atoqli shaklda berilgan	Sherzod, Qoplon, Tulki (majoziy ma‘noda inson obrazida ishlatilgan)
Tarixiy shaxslar	Tarixiy personajlar	Amir Temur, Jaloliddin

**Atoqli otlarning funksional roli.** Atoqli otlar – shaxs, joy, narsa yoki hodisaning nomini bildiruvchi so‘zlar. Bolalar qo‘shiqlarida atoqli otlar orqali bolalar o‘zlarini o‘rab turgan dunyo bilan tanishadilar. Masalan, “O‘rik gulladi” qo‘shig‘ida o‘rik daraxti, “Paxtaoy” qo‘shig‘ida Paxtaoy qizning obrazi atoqli otlar orqali yaratiladi. Bu qo‘shiqlar bolalarga tabiatni, insonlarni sevishga, ularga mehr bilan qarashga o‘rgatadi. O‘zbek bolalar o‘yin qo‘shiqlarida geografik nomlar ham keng qo‘llaniladi. “Andijon polkasi”, “Buxorocho”, “Samarqandcha” kabi qo‘shiqlarda O‘zbekistonning go‘zal shaharlari tilga olinadi. Bu qo‘shiqlar bolalarda o‘z yurtiga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otadi, ularni O‘zbekistonning tarixi va madaniyati bilan tanishtiradi.

**Ritm va qofiyani ta‘minlash:**

Boymurod keldi, shodon keldi,  
Bolalar yoniga guldek keldi.

**Obraz yaratish:**

Sherzod chiqdi maydonga,  
Qo‘li bilan urdi to‘pga.

**Mahalliylik va muhitni aks ettirish:**

Qo‘qondan kelgan Xolnisa,  
Qo‘shiq aytib yuradi rosa.

**Tarixiy va madaniy konnotatsiya berish:**

Amir Temur bolalikda,  
Qo‘shiq aytgan dostonlarda.

**MUHOKAMA**

Bolalar o‘yin qo‘shiqlari – folklorning bir turi bo‘lib, ular bolalar o‘yinlari haqida kuylanadi va o‘yinning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular o‘yinga muhit yaratadi, ishtirokchilarning harakatlarini jonlantiradi hamda o‘yinga dramatik tus beradi. Odatda, bolalar o‘yinni boshlashdan oldin sanama yoki chek tashlash usullari bilan kim birinchi o‘ynashini aniqlab olishadi. O‘g‘il va qiz bolalar birgalikda “To‘p”, “To‘p tosh”, “Chittigul” kabi o‘yinlarni o‘ynashadi va ularning har biriga mos qo‘shiqlarni aytishadi. Shu orqali bolalar o‘zlarining qo‘shiq aytish mahoratini namoyon etishadi, aka-uka, opa-singillar va boshqa qarindoshlarini tasvirlashadi. To‘p o‘yinida aytiladigan qo‘shiqlar to‘pning har bir sakrashiga mos bo‘lib, shu orqali hisob yuritiladi. Harakat va ovozning uyg‘unligi

o'ziga xos musiqiylik yaratib, bolaning o'yin davridagi kayfiyatini aks ettiradi. Bu qo'shiqlarda bolalar o'sgan davr, ularning oilaviy muhiti, hayajonlari va kechinmalari yaqqol ko'rinadi.

O'yin qo'shiqlarida atoqli otlarning qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'zbek xalqining tarixiy, madaniy, geografik xotirasini uzviy ifodalaydi. Antroponimlar, odatda, bolalarga tanish va qulay ism sifatida tanlanadi, bu esa ularni o'yin ishtirokchisi sifatida qabul qilishni osonlashtiradi. Toponimlar esa bolalarning makon haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Shuningdek, bolalar qo'shiqlarida afsonaviy qahramonlar, ertak personajlarining nomlari ham uchraydi. "Bo'ri bilan echki", "Zumrad va Qimmat" kabi qo'shiqlarda Bo'ri, Echki, Zumrad, Qimmat kabi atoqli otlar orqali bolalar yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm kabi tushunchalar bilan tanishadilar.

Bolalar o'yin qo'shiqlarida atoqli otlarning qo'llanilishi bolalarning nutqini o'stirishga, ularning lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Qo'shiqlarni kuylash jarayonida bolalar so'zlarning ma'nosini anglab yetadilar, ularni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadilar. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning kelajakda savodli va bilimli inson bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Tarixiy shaxslar yoki mashhur nomlarning kiritilishi esa bolalarni milliy g'urur va o'zligini anglashga yetaklaydi. Atoqli otlar orqali bolalar dunyoqarashida real va xayoliy obrazlar uyg'unlashadi. Bunday nomlar bolalarni mustaqil fikrlash, obrazlar bilan ishlash, madaniy qadriyatlarni anglashga yo'naltiradi.

Bundan tashqari, atoqli otlarning qo'llanilishi tilning ritmik va fonetik boyligini oshiradi. Shu tariqa, ular o'yin qo'shiqlari poetikasining muhim elementiga aylanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek bolalar o'yin qo'shiqlari – bu bolalar uchun nafaqat ko'ngilochar vosita, balki ularning aqliy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi bebaho xazina. Ushbu qo'shiqlarda atoqli otlarning qo'llanilishi bolalarga o'zligini anglashga, o'z yurtini sevishga, dunyoni o'rganishga yordam beradi. Shunday ekan, bolalarimizni ushbu qo'shiqlar bilan oziqlantirish, ularning kelajagiga sarmoya kiritish demakdir. Atoqli otlar o'zbek bolalar o'yin qo'shiqlarida ko'p funksiyali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular:

- bolalarning til o'rganish jarayonini yengillashtiradi;
- madaniy va tarixiy konnotatsiyani beradi;
- ritmik va poetik ohangni mustahkamlaydi;
- bolalarda obrazli tafakkurni rivojlantiradi.

Kelgusida bolalar folklorida atoqli otlarning qo'llanishi bo'yicha korpus lingvistikasi asosida ham izlanishlar olib borish zarur. Bu esa tilshunoslik va pedagogika kesishmasida yangi yondashuvlar yaratishga imkon beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek xalq bolalar folklori. 1–3 jildlar. Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
2. Jo'raev N. O'zbek tilshunosligida onomastika masalalari. Toshkent: O'zbekiston, 2005.
3. Ashurov A. Bolalar adabiyoti va xalq ijodi. Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
4. Urazovna, E. F. (2024). INGLIZ BOLALAR O 'YIN FOLKLORINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI IFODALANISHI. Science and innovation, 3(Special Issue 4), 21-23.
5. Mahmudov N. O'zbek tilining hozirgi holati. Toshkent: Fan, 2008.
6. Adams, L. L. (1999). Invention, institutionalization and renewal in Uzbekistan's national culture. European Journal of Cultural Studies, 2(3), 355-373.
7. Levin, T. C. (1996). The hundred thousand fools of God: musical travels in Central Asia (and Queens, New York). Indiana University Press.
8. Baker, P. (2010). Sociolinguistics and Corpus Linguistics: A Marriage of Equals. Edinburgh University Press.
9. Bruner, J. S. (1983). Child's Talk: Learning to Use Language. W. W. Norton & Company.
10. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Blackwell Publishing.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000